“BAYROQ — MENING HIKOYAMDA”
xalqaro ijodiy işlar tanlovini ötkaziş töğrisida
NIZOM

1. Umumiy qoidalar. Mazkur Nizom “Bayroq — mening hikoyamda” nomli xalqaro ijodiy işlar tanlovini (keyingi örinlarda — Tanlov) taşkil etiş, ijodiy işlarni qabul qiliş, baholaş va ğoliblarni aniqlaş tartibini belgilaydi. Tanlov “Vatandoşlar” jamoat fondi (keyingi örinlarda — Fond) tomonidan 18-noyabr — Özbekiston Respublikasi Davlat bayroği qabul qilingan kun munosabati bilan xorijdagi vatandoşlarning milliy özlik va Vatanga daxldorlik tuyğularini mustahkamlaş, davlat ramzlariga hurmatni oşiriş hamda ijodiy faollikni rağbatlantiriş maqsadida taşkil etiladi. Ijodiy işda Davlat bayroği şunçaki tasvirlanmasdan, uning vositasida aniq, tuşunarli va mazmunan tugallangan hikoya yoki ğoya ifodalanişi lozim.

2. Iştirokçilar va nominatsiyalar. Tanlov xorijda istiqomat qilayotgan vatandoşlar uçun onlayn şaklda ötkaziladi. Tanlov “Bayroq — mening hikoyamda” nomi ostida quyidagi ikki nominatsiya böyiça ötkaziladi: 1) “Eng yaxşi video”; 2) “Eng yaxşi rasm”. Har bir iştirokçi ikki nominatsiyadan faqat bittasiga bitta ijodiy iş taqdim etişi mumkin.

3. Ijodiy işlarni qabul qiliş. Ijodiy işlar 2026-yil 17-noyabr kuni, Toşkent vaqti bilan soat 23:59 ga qadar Fondning vatandoshlar.uz/bayroq havolasi orqali qabul qilinadi. Belgilangan muddatdan keyin kelib tuşgan işlar körib çiqilmaydi.

4. Video nominatsiyasiga talablar. Ijodiy işning davomiyligi 1 daqiqadan, fayl hajmi 100 MB dan oşmasligi, fayl formati MP4, MOV, AVI bölişi şart. Videoni yaratiş usuli çeklanmaydi: u iştirokçining özi tomonidan yoki sun’iy intellekt vositalaridan foydalanib yaratilişi mumkin. Videodagi matnlar va subtitrlar aniq, tuşunarli hamda imloviy xatolarsiz bölişi lozim.

5. Rasm nominatsiyasiga talablar. Rasm qölda çizilgan bölişi şart; kompyuter grafikasi va sun’iy intellekt vositalarida yaratilgan rasmlar qabul qilinmaydi. Qölda çizilgan rasmning fotosurati yoki skaneri JPG, JPEG, PDF yoki PNG formatida, hajmi 20 MB dan oşmagan holda taqdim etiladi. Rasmdagi matnlar (mavjud bölsa) aniq, tuşunarli hamda imloviy xatolarsiz bölişi lozim.

6. Mualliflik huquqi va şaxsga doir ma’lumotlar. Ijodiy işlarda boşqa şaxslarning mualliflik huquqlari, tasviridan foydalaniş va şaxsga doir ma’lumotlarni himoya qiliş talablari buzilmasligi şart.

7. Hakamlar hay’ati. Tanlovga taqdim etilgan ijodiy işlarni baholaş uçun tasviriy san’at, grafik dizayn va videomontaj yönalişlaridagi mutaxassislardan iborat hakamlar hay’ati şakllantiriladi. Hakamlar hay’ati har ikkala nominatsiya böyiça işlarni mustaqil va xolis baholaydi. Uşbu Nizomning majburiy talablariga mos kelmaydigan işlar baholaşga qöyilmaydi.

8. Baholaş mezonlari. Har ikkala nominatsiyada ijodiy işlar quyidagi uçta yagona mezon asosida 100 ballik tizimda baholanadi:

№	Baholaş mezoni	Mezonning mazmuni	Ball
1	Mazmuniy yaxlitlik va mavzuga muvofiqlik	Ğoyaning ravşanligi, mantiqiy izçilligi va yakunlanganligi.	40
2	Ijodiy originallik va badiiy yeçim	Yangiça yondashuv, obrazlilik va kompozitsiya.	35
3	Texnik va vizual ijro sifati	Tasvirning aniqligi, uygğunlik, matn va subtitrlarning savodxonligi.	25
Jami			**100**

9. Asosiy ğoliblarni aniqlaş. Har bir nominatsiya böyiça eng yuqori yakuniy ball olgan bittadan iştirokçi — jami ikki nafar asosiy ğolib deb topiladi. Ballar teng kelganda mazmuniy yaxlitlik va mavzuga muvofiqlik mezonidan yuqori ball olgan iş ustun hisoblanadi; bu körsatkiç ham teng bölsa, hay'at qarori bayonnoma bilan rasmiylaştiriladi.

10. "Tomoşabinlar e'tirofi" ğoliblarini aniqlaş. Har ikkala nominatsiya böyiça yana bittadan — jami ikki nafar "Tomoşabinlar e'tirofi" ğolibi Fondning rasmiy Telegram kanalida ötkaziladigan oçiq ovoz beriş orqali aniqlanadi. Ovoz beriş 2026-yil 18-noyabr soat 16:00 dan 19-noyabr soat 16:00 ga qadar *(Toşkent vaqti bilan),* 24 soat davom etadi. Ovoz berişga har bir nominatsiyadagi asosiy ğolibdan taşqari hay'at yuqori baholagan işlar qöyiladi. Eng köp ovoz olgan bittadan iştirokçi ğolib böladi; ovozlar teng kelganda hay'at bahosi ustun hisoblanadi.

Muhim eslatma! *Kelib tuşgan ijodiy işlar hajmiga köra ğoliblar soni Fondning qarori bilan özgarishi mumkin.*

11. Natijalarni e'lon qiliş va taqdirlaş. Natijalar Fondning telegramdagi rasmiy sahifasida e'lon qilinadi. Har bir asosiy ğolibga noutbuk, har bir "Tomoşabinlar e'tirofi" ğolibiga smartfon sovğa qilinadi.